

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSIQIY IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

*Raxmonberdiyeva S.M.*

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy  
pedagogika universiteti,  
Musiqiy ta'lim kafedrası o'qituvchisi.  
raxmonberdiyevasurayyo@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijodkorlik – faoliyatining inson ongida oliy tarzda paydo bo'lishi, uning bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanishi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish omillari, musiqiy ijodiy jarayoni tashkil etish hamda musiqa darslarida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini oshirish usullar haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijodkorlik, san'at, fikr, cholg'u asbobi, raqs, jo'rovoz, vokal, ritm, harakat, o'yin.

**Аннотация:** В данной статье описывается возникновение творчества в человеческом разуме в высшей форме, его определение посредством творческой деятельности, факторы, формирующие музыкальные способности учащихся начальной школы, организация музыкально-творческого процесса и методы повышения творческой активности учащихся на уроках музыки.

**Ключевые слова:** Творчество, искусство, мысль, музыкальный инструмент, танец, пение, вокал, ритм, движение, игра.

**Abstract:** This article describes the emergence of creativity in the human mind in its highest form, its definition through creative activity, factors that shape the musical abilities of elementary school students, the organization of the musical-creative process and methods for increasing the creative activity of students in music lessons.

**Key words:** Creativity, art, thought, musical instrument, dance, singing, vocals, rhythm, movement, play.

### KIRISH

Ijodkorlik – faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oily tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir.

Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'yektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy

ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadigan mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, ilmiy mehnat va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxsning ijodkorlik fazilatlarini shakllanishi aynan maktabda boshlanadi. Zero, maktabda turli salohiyat va qobiliyatga ega bolalar ta'lim oladi va bolalardagi ana shu layoqatni va salohiyatni rivojlantirish maktab o'qituvchilarining birinchi galdagi vazifasidir. Bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta'lim-tarbiyadan tashqarida, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z g'oya, fikr va qarashlarini faoliyati davomida amalda qo'llaydi va yangilik yaratadi, ana shu yangilik yaratish ijodkorlik bo'lib, tafakkurning eng oliy shaklidir. Faoliyatning maqsadi va usullarning tarkibi sifatida mahorat va tashabbuskorlikning asosiy sharti sifatida uni ijodiy faoliyat darajasiga ko'taradi. Musiqa madaniyati bo'yicha o'quv dasturida musiqa ijodkorligi faoliyati ilk bor kiritilgan. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'stirib borish uchun katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosida jo'rovovlik qilish, sinf ijrosida dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash, cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilarning ijodkorlik faoliyatini kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir.

Garchi musiqa ijodkorligi faoliyati alohida faoliyat sifatida berilsa ham, u darsning barcha faoliyatlari zahirida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodni boshlanishi, yorqin namoyon bo'ladi, yosh o'quvchilar judayam kashfiyotchi bo'ladi: taqlid qilishadi, obrazli ertak mazmunlarini yengil qabul qilishadi, hikoyani, qo'shiqlarni, musiqiy asarlarni, tabiatan faol qabul qilishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda tabiatan faollik berilgan bo'lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo'ladi. Mana shular kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy shakllanishini rivojlanishidir. Ijod o'quvchilarni xotirasini faollashtiradi, fikrlashni uzatuvchanlikni, masqadga intilishni rivojlantiradi.

Boshlang'ich maktab davri bolaning intellektual va estetik olami shakllanadigan eng muhim bosqichdir. Musiqa ta'limi faqatgina qo'shiq kuylash yoki nota o'rganish emas, balki bolaning ichki "men"ini namoyon etish, tasavvur olamini kengaytirish va

ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish quolidir. Musiqada ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari o'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishini o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir.

### NATIJALAR

O'quvchilarda musiqiy ijodkorlikni shakllantirishda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- Psixofiziologik omil: 7-11 yoshli bolalarda sensor idrok etish juda kuchli bo'ladi. Ularning ritm sezgisi va ohangni his qilish qobiliyati aynan shu davrda jadal rivojlanadi.
- Pedagogik muhit: O'qituvchining darsni tashkil etish mahorati. Har bir bolaga o'z fikrini musiqa orqali ifodalashga imkon berish.
- Texnologik omil: Zamonaviy AKT vositalari, musiqiy dasturlar va elektron cholg'ulardan foydalanish.

Musiqa darslarida ijodkorlikni oshirish uchun quyidagi usullarni qo'llash tavsiya etiladi:

- ❖ Vokal improvizatsiyasi: Berilgan matnga o'z ohangini o'ylab topish yoki ohangni davom ettirish.
- ❖ Ritmik o'yinlar: Chapak yordamida ritmga jo'r bo'lish va o'z ritmik maqshlarini yaratish.
- ❖ Musiqa va tasviriy san'at: Tinglangan asarga o'zining tasviridagi rasmni chizish yoki uning rangini tasvirlash.
- ❖ Raqs harakatlari: Musiqa ohangiga mos ravishda erkin raqs harakatlarini bajarish.
- ❖ "O'yin orqali ijod": Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'yin — asosiy faoliyatdir. Musiqiy o'yinlar (masalan, "Ohangni top", "Sehrli cholg'u") bolani zeriktirmaydi va unda bilmasdan turib ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmasini hosil qiladi. O'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o'ynaydi. Buni bajarish ko'proq o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o'yin formasini qo'llaydi. Topshiriqni bajarishda o'yin qoidalari va mazmun aytib turiladi. O'yin darsida emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda ijodiy yo'nalishlarini shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchining ijodiy rivojlanishiga katta ahamiyat berishi kerak. Musiqa tinglashda, qo'shiq ijro etishda, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lishda va shuningdek, musiqiy ritmik harakat faoliyatlarini olib borishda.

### XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy ijodkorligini rivojlantirish ularning nafaqat san'atga bo'lgan muhabbatini oshiradi, balki mantiqiy fikrlash, nutq va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini ham tezlashtiradi. Musiqa madaniyati darslarida

o'quvchilarning ijodiy jarayonni tashkil etishda yuqoridagi tavsiya etiladigan usullarni qo'llash o'quvchilarni musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularning musiqiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanishga xizmat qiladi

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rauf Kadyrov. Music is pedagogical. T: Flow guide. "Music" published. 2018.
2. Rachmonberdieva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF METHODS OF VOCAL PEDAGOGY IN THE EDUCATION OF THE VOICE OF STUDENTS IN THE PERIOD OF MUTATION. In *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования* (pp. 142-145).
3. Raxmonberdiyeva, S. (2023). XOR BO'LIB KUYLASHDA VOKAL XOR MALAKALARINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 158-162.
4. Raxmonberdiyeva, S. M. (2020). OQUVCHILAR ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQA TINGLASH FAOLIYATINING TUTGAN ORNI. *Интернаука*, (1-3), 67-69.
5. Raxmonberdiyeva, S. M. (2021). MUSIQA DARSLARIDA BOLALARNING MUSIQIY IJODIY FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARADORLIGI. *Интернаука*, (19-6), 15-16.
6. Raxmonberdiyeva, S. (2022). MTT DA BOLALARNI MAQOM ASARLARI TINGLATISHGA O'RGATISH VA UNI IDROK QILISH KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(7), 489-494.
7. Karimova, D. (2023). Musiqa o'qitishning pedagogik tashxisi va metodlari. *Наука и технология в современном мире*, 2(7), 47-49.
8. Karimova, D. A. (2023). Musiqa o'qitish metodikasi: boshlang'ich sinflarda musiqa tinglash faoliyati. *Science and Education*, 4(3), 389-394.
9. Karimova, D. (2023). METHODOICAL ANALYSIS OF LONDON SCHOOL IN MUSIC TEACHING TECHNOLOGY. *Solution of social problems in management and economy*, 2(2), 43-47.
10. Karimova, D. A. (2022). MUSIQA DARSLARIDA BOLALAR MUSIQA TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 288-294.